

o'ynadi. 2020-yildagi VMQ-704-son qarori, DSQ tomonidan ishlab chiqilgan elektron hisob-fakturalar, QR-kodli nazorat-kassa mashinalari va "E-Soliq" tizimi bo'yicha yo'riqnomalar soliq bazasini aniq, tez va ishonchli tarzda aniqlash imkonini yaratdi. Bu texnologik va huquqiy yangiliklar orqali davlat soliq organlari soliq bazasi elementlarini real vaqt rejimida, subyektiv aralashuvlarsiz aniqlash imkoniyatiga ega bo'ldi;

to'rtinchi bosqich (2025-yildan to hozirgacha bo'lgan davr) – normativ-huquqiy asoslari strategik va prognozlashuvchan xarakter kasb eta boshladi. Xususan, "Soliq siyosatining 2030-yilgacha bo'lgan konsepsiyasi" loyihasi va unga mos ravishda ishlab chiqilgan DSQ metodik ko'rsatmalari orqali soliq bazasi monitoringi, baholash mezonlari, soliq rejimlarining moslashuvchanligi va differensial yondashuvlarga asoslangan tizim shakllandi. Bu esa soliq bazasini aniqlash metodologiyasining nafaqat huquqiy mustahkamlanishini, balki iqtisodiy jarayonlarga mos ravishda rivojlanishini ta'minladi.

Umuman olganda, yuqoridagi huquqiy rivojlanish tendensiyalari davlat tomonidan soliq bazasini aniqlash metodologiyasini tobora aniq, prognoz qilinadigan, axborot texnologiyalariga tayanuvchi va xalqaro tajribaga mos tizimga aylantirishga xizmat qilganini ko'rsatadi. Bu jarayon nafaqat soliqqa tortish mexanizmlarining shaffofligini oshirdi, balki byudjetga tushumlarning barqarorligi, tadbirkorlik faoliyatining rasmiylashuvi va soliq yuki adolatliligining ta'minlanishiga ham zamin yaratdi.

## **MILLIY IQTISODIYOT BARQAROR RIVOJLANISHIDA IJTIMOY SOHANING ROLI VA UNI BUDJETDAN MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINING USTUVOR YO'NALISHLARI**

***Imamova Gulshan Tursunmurod qizi***

*TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy tadqiqot markazi doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ijtimoiy sohaning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati, uni davlat budjeti orqali moliyalashtirishning asosiy yo'nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqotda ta'lim, sog'liqni saqlash, ilm-fan hamda ijtimoiy himoya sohalariga ajratilayotgan mablag'larning dinamikasi va tuzilmasi 2023–2025 yillar misolida ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy soha, davlat budjeti, ijtimoiy investitsiyalar, inson kapitali, ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik, milliy iqtisodiyot, farovonlik

Bugungi kunda ijtimoiy sohani rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi, chunki ushbu soha aholining turmush darajasi va milliy iqtisodiyot barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2026-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida: "Asosiy maqsadimiz –

odamlarimizni doimiy daromadli qilishdan iborat. Puli bor odam yaxshi kiyinish va ovqatlanishga, sifatli ta'lim va malakali tibbiy xizmatdan foydalanishga, mazmunli dam olishga, bir so'z bilan aytganda, farovon yashashga intiladi."<sup>172</sup>, — deb ta'kidlagan.

Shuningdek, 2026-yil “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e'lon qilinishi ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholining farovonligini oshirish va jamiyat barqarorligini ta'minlash masalalarining davlat siyosatidagi dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Bu yil nomlanishi aholining ijtimoiy himoyasi, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini rivojlantirishga bo'lgan davlat e'tiborini yanada oshiradi va mahalla institutining jamiyatdagi rolini mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, davlat tomonidan aholining turmush darajasini oshirish, ularni sifatli xizmatlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar doimiy ravishda amalga oshirilmoqda. “O'zbekiston — 2030” strategiyasida ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish orqali inson kapitalini mustahkamlash va aholining farovonligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.<sup>173</sup>

Asosiy qism. Ijtimoiy sohani budjetdan moliyalashtirishda ta'lim, sog'liqni saqlash va ilm-fan ustuvor yo'nalishlar bo'lib, oliy ta'limda moliyaviy mustaqillik va reytingga asoslangan moliyalashtirish, sog'liqni saqlashda esa majburiy tibbiy sug'urta mexanizmini joriy etish orqali inson kapitalini rivojlantirishga yo'naltirilgan islohotlar muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>174</sup>

## 1-jadval

### 2023-2025 yillarda ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan davlat xarajatlari tahlili, trln so'm<sup>175</sup>

	2023	2024	2025
<b>Ijtimoiy soha, shundan:</b>	<b>163,3</b>	<b>174,4</b>	<b>205,8</b>
Ta'lim	65,4	77,2	92,2
Sog'liqni saqlash	32,4	37,6	43,9
Madaniyat	3,1	3,3	4,3
Sport	3	3,7	4
Fan	1,8	2,1	1,8
Nafaqalar, moddiy yordam va aholiga boshqa imtiyozli to'lovlar	19,2	15,3	16,8
Aholiga past tariflar qo'llash hisobiga energetika va transport korxonalariga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	20,9	15,3	15,6
Aholi bandligi va farovonligini oshirish xarajatlari	2,7	1,7	2,7
Pensiya jamg'armasiga transfertlar	13,8	16,3	20,2
Ipoteka krediti bo'yicha subsidiyalar	1,1	1,4	2,5

Bizning fikrimizcha, mazkur yondashuvlar budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga, ijtimoiy sohaning barqaror

<sup>172</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi

<sup>173</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risidagi Farmoni

<sup>174</sup> Raxmonov D.A. (2018) O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslari.

<sup>175</sup> Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

rivojlanishini ta'minlash va milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

2023–2025 yillarda ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan davlat xarajatlari dinamikasi davlat budjetida ijtimoiy yo'nalish ustuvor ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi. Mazkur davr mobaynida ijtimoiy soha xarajatlari 163,3 trln so'mdan 205,8 trln so'mga oshib, sezilarli o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Bu esa ijtimoiy siyosatni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirishga qaratilgan fiskal siyosatning faollashganligini anglatadi.

Tarkibiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy xarajatlar tarkibida eng katta ulush ta'lim sohasiga to'g'ri keladi. Xususan, ta'lim xarajatlari 2023-yildagi 65,4 trln so'mdan 2025-yilda 92,2 trln so'mga yetib, barqaror o'sishni ta'minlagan. Bu holat uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblangan inson kapitalini rivojlantirishga davlat tomonidan ustuvor e'tibor qaratilayotganini ifodalaydi.

Sog'liqni saqlash xarajatlari ham tahlil qilinayotgan davrda izchil o'sib, 32,4 trln so'mdan 43,9 trln so'mga yetgan. Mazkur o'sish aholi salomatligini mustahkamlash, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining kengayib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, madaniyat va sport sohalariga ajratilayotgan mablag'lar nisbatan kichik ulushni tashkil etgan bo'lsa-da, ularning hajmida ham bosqichma-bosqich o'sish kuzatiladi.

Fan sohasiga yo'naltirilgan xarajatlar 2023–2024 yillarda ma'lum darajada oshgan bo'lsada, 2025-yilda yana 1,8 trln so'mga tenglashib, beqaror dinamika namoyon etgan. Bu holat ilmiy-tadqiqot faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Ijtimoiy himoya yo'nalishidagi xarajatlar tarkibida nafaqalar, moddiy yordam va boshqa imtiyozli to'lovlar hajmining 2024-yilda qisqargani, 2025-yilda esa qisman tiklangani kuzatiladi. Bunday o'zgarishlar ijtimoiy transferlar tizimini optimallashtirish va manzilliligini oshirish bilan izohlanishi mumkin.

Alohida e'tibor talab qiluvchi jihat - aholiga past tariflar qo'llash hisobiga energetika va transport korxonalariga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlarining 2023-yildagi 20,9 trln so'mdan 2025-yilda 15,6 trln so'mga kamayganidir. Bu subsidiyalarni bosqichma-bosqich qisqartirish va bozor mexanizmlarini kuchaytirish siyosati olib borilayotganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy sohani rivojlantirish va uni budjetdan moliyalashtirish milliy iqtisodiyot barqarorligining muhim sharti hisoblanadi. 2023–2025 yillarda ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalariga ajratilgan mablag'larning o'sishi davlat siyosatida inson kapitalini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilayotganidan dalolat beradi. Ta'lim va sog'liqni saqlashga yo'naltirilgan xarajatlar mehnat bozorida malakali va sog'lom ishchi kuchini shakllantirish orqali mehnat unumdorligi va iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy himoya, bandlik va ipoteka subsidiyalari esa aholining ijtimoiy barqarorligini ta'minlab, farovonlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois,

ijtimoiy sohani moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va ijtimoiy investitsiyalar samaradorligini oshirish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi*

2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni*

3. *Raxmonov D.A. (2018) O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslari.*

4. *www.imf.uz – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti*

## **SOLIQ MAJBURIYATLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA HISOBGA OLISH**

***Sh.B. Butunov***

*Qarshi davlat texnika universiteti katta o'qituvchisi*

***Annotatsiya.*** Mazkur maqolada soliq majburiyatlarini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida hisobga olishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Xususan, joriy va kechiktirilgan soliq majburiyatlarining tan olinishi, baholanishi hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirilishiga oid masalalar IAS 12 "Daromad solig'i" standarti talablari asosida tahlil qilingan.

***Kalit so'zlar:*** soliq majburiyati, joriy soliq, kechiktirilgan soliq, MHXS, IAS 12, moliyaviy hisobot.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligi ko'p jihatdan ularning soliq majburiyatlarini to'g'ri va shaffof hisobga olishiga bog'liq. Globallashuv jarayonlarining kuchayishi natijasida moliyaviy hisobotni xalqaro darajada solishtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu sababli soliq majburiyatlarini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisobga olish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Soliq majburiyati — bu xo'jalik yurituvchi subyektning davlat byudjeti oldidagi qonun hujjatlarida belgilangan majburiyatidir. U moliyaviy hisobotda majburiyat sifatida e'tirof etiladi va kelgusida iqtisodiy resurslarning chiqib ketishiga olib keladi.[3]

Xalqaro amaliyotda soliq majburiyatlari quyidagilarga bo'linadi:

- joriy soliq majburiyatlari;
- kechiktirilgan soliq majburiyatlari.